

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**SAIDKULOV FAYZULLO RAVSHAN O'G'LI**

**AROMATIK BIRIKMALAR ASOSIDA YANGI SIRT-FAOL MODDALAR  
SINTEZI VA KOLLOID-KIMYOVIIY XOSSALARI**

**02.00.11 - Kolloid va membrana kimyosi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Content of the dissertation abstract of doctor of Philosophy (PhD)**

**Saidkulov Fayzullo Ravshan o‘g‘li**

Aromatik birikmalar asosida yangi sirt-faol moddalar sintezi va kolloid-kimyoviy xossalari ..... 3

**Саидкулов Файзулло Равшан угли**

Синтез новых поверхностно-активных веществ на основе ароматических соединений и их коллоидно-химические свойства..... 21

**Saidkulov Fayzullo Ravshan ogli**

Synthesis of new surfactants based on aromatic compounds and their colloid-chemical propertie ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works ..... 45

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 RAQAMLI ILMIY  
KENGASH**

---

**UMUMIY VA NOORGANIK KIMYO INSTITUTI**

**SAIDKULOV FAYZULLO RAVSHAN O'G'LI**

**AROMATIK BIRIKMALAR ASOSIDA YANGI SIRT-FAOL MODDALAR  
SINTEZI VA KOLLOID-KIMYOVIIY XOSSALARI**

**02.00.11 - Kolloid va membrana kimyosi**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Kimyo fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/K1010 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Umumiy va noorganik kimyo institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida [www.ionx.uz](http://www.ionx.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Maxkamov Ravshan Raximovich**  
kimyo fanlari doktori, katta ilmiy xodim

**Rasmiy oponentlar:**

**Abdikamalova Aziza Baxtiyarovna**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Sidiqov Abdujalil Sidiqovich**  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Toshket kimyo-texnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.05/2025.27.12.K/T.19.01 raqamli Ilmiy kengashning «7» aprel 2026 yil soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90, e-mail: [ionx@academy.uz](mailto:ionx@academy.uz)).

Dissertatsiya bilan Umumiy va noorganik kimyo institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (7- raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo-Ulug'bek ko'chasi, 77-a. Tel.: (99871) 262-56-60; faks: (99871) 262-79-90 e-mail: [ionx@academy.uz](mailto:ionx@academy.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «24» mart kuni tarqatildi.  
(2026 yil «24» martdagi 7-raqamli reestri bayonnomasi).



**A.B. Ibragimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi, k.f.d., professor

**B.Z. Adizov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi, t.f.d., professor

**Y.Y. Yakubov**  
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi o'rinbosari, k.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo miqyosida turli sanoat tarmoqlarining tez suratlar bilan rivojlanishi sirt-faol moddalarga (SFM) bo'lgan ehtiyojni sezilarli darajada oshirmoqda. Buning natijasida sirt-faol moddalar ishlab chiqarish va iste'mol qilish hajmi keskin ortib bormoqda. O'zbekistonda ham turli ishlab chiqarish sohalarining jadal rivojlanishi natijasida yuqori samarali emulgirlash, stabillash, ho'llash va sirt faollik xususiyatiga ega bo'lgan sirt-faol moddalar uchun talab yuqori bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda vatanimizda ishlatilayotgan sirt-faol moddalarning ko'p qismi aromatik birikmalarning hosilalari bo'lib ular asosan chet ellardan sotib olib kelinmoqda. Shuning uchun aromatik birikmalar asosida yangi samarali sirt-faol moddalar sintez qilish, xossalarini o'rganish va sanoatda ishlatish usullarini topish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega.

Jahonda yangi SFMLar sintez qilish, ularning xususiyatlarini o'rganish, sanoatning turli tarmoqlarida qo'llash va ishlab chiqarish texnologiyalarini yaratish bo'yicha faol ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda ham yangi SFMLar olish, ularning suvli eritmalarining ko'pik hosil qilish qobiliyatini, emusiyalarning barqarorligiga ta'sirini va sirt faollik xossalarini o'rganish, xalq xo'jaligida qo'llash sohalarini aniqlash bo'yicha ilmiy ishlar olib borishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mavjud bo'lgan mahalliy xomashyolardan yangi sirt-faol moddalar olish bo'yicha ilmiy va amaliy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasining uchinchi yo'nalishida «Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish»<sup>1</sup> bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy hom ashyolarimiz bazasidan kelib chiqqan holda, aromatik birikmalar asosida biologik yumshoq, tabiatda oson bioparchalanuvchan va atrof-muhit uchun zararsiz yangi yuqori samarali sirt-faol moddalar sintez qilish va kolloid kimyoviy xossalarini o'rganish asosida sanoatda ishlatish yo'llarini topish bugungi kunda juda dolzarb va zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 31-oktyabrdagi PF-5863-son «2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni, 2019-yil 3-apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori, hamda 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805 “Kimyo va biologiya yo'nalishlarida uzluksiz ta'lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” gi Farmoni.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalari» ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq holda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.**

Aromatik birikmalar asosida yangi sirt-faol hosilalarini olish, xossalarini o‘rganish va sanoatda qo‘llash hozirgi kunda juda ham dolzarb bo‘lib, bunday birikmalar o‘zining biologik yumshoqligi va oson bioparchalanishi bilan turli mamlakatlar olimlarini ilmiy ishlar olib borishga undamoqda. Bunday ilmiy ishlarni ayniqsa Xitoy, AQSH, Yaponiya, Hindiston, Buyuk Britaniya, Ispaniya, Germaniya, Shvedsiya, Rossiya davlatlari universitetlarining olimlari va ilmiy laboratoriyalarning yetakchi mutaxassislari bajarib jurnallarda chop etishmoqda. Ulardan T. Paul, J. Robert, A.V. Protopopov, S.G. Ivanova, S.A. Kuznetsov, U.N. Zaynutdinov, G.G. Lutfullina, K.S. Gusayeva, K.E. Martinov, A.P. Dremuk, X. Kong, Y. Li, X. Zhao, X. Zhang, J. Wang, L. Zhang, V. Sharma, P. Kumar, V. Bansal, K. Singh, J.M. Sandeauxlar fenolsulfokislotalarining tuzlari va murakkab efirlari asosida sirt-faol moddalar sintez qilish, kolloid-kimyoviy xossalarini o‘rganish, sanoatda ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va ularning sirt faollik xossalarini yaxshilash ustida ilmiy ishlar olib borishmoqda.

O‘zbekistonda aromatik birikmalar asosida yangi sirt-faol moddalarni sintez qilish bo‘yicha ko‘pgina ilmiy ishlar olib borilgan, jumladan akademik K.S. Axmedov va S.N. Aminovlar rahbarligida sirt-faol moddalar sintez qilish, kolloid-kimyoviy xossalari o‘rganish bo‘yicha ilmiy maktab yaratilgan bo‘lib, hozirgi kunda ularning vakillari: I.D. Eshmetov, R.R. Maxkamov, F.M. Yusupov, A.B. Abdikamalova, D.S. Salixanova, D.J. Jumayeva, Sh.A. Kuldasheva, B.Z. Adizov, Sh.B. Buxorov, R.J. Eshmetov va boshqa olimlar sirt-faol moddalar sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini faol olib bormoqdalar. Bu sohada aromatik birikmalar asosida atrof muhit uchun zararsiz yangi sirt-faol moddalar sintez qilish, kolloid kimyoviy xossalarini o‘rganish va xalq xo‘jaligida qo‘llash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari hali yetarli emasligini qayd etish lozim. Shuning uchun aromatik birikmalar asosida yangi sirt-faol moddalar sintez qilish, kolloid kimyoviy xossalarini o‘rganish va sanoatda ishlatish yo‘llarini topish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni yanada rivojlantirish kerak.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Umumiy va Noorganik kimyo institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Dispers tizimlarning texnologik xususiyatlarini yaxshilaydigan sirt-faol moddalar yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish» mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** aromatik birikmalar asosida har xil uzunlikdagi uglevodorod zanjiriga ega bo‘lgan sirt-faol moddalar qatorini sintez qilish va ularning kolloid-kimyoviy xossalari asosida sanoatning turli sohalarida ishlatilish yo‘llarini aniqlashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

fenol va konsentrlangan sulfat kislotasining o'zaro reaksiyasi asosida p-fenolsulfokislotani sintez qilish va uni bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish natijasida p-fenolsulfokislotasining murakkab efirlarini olish. Sintez qilingan p-fenolsulfokislotasining murakkab efirlarini etanolli muhitda natriy gidroksidi va trietanolamin bilan neytrallab tuzlarini olish;

naftalin bilan konsentrlangan sulfat kislotasining o'zaro reaksiyasi asosida  $\beta$ -naftalinsulfokislotani sintez qilish va uni bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish natijasida  $\beta$ -naftalinsulfokislotasining murakkab efirlarini olish;

sintez qilingan sirt-faol moddalarni reaksiya muhitidan ajratib olish va turli usullar yordamida tozalash. Tozalab olingan birikmalarning kimyoviy tuzilishini va fizik xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqoq usullar yordamida ko'rsatib berish;

sintez qilingan sirt-faol moddalarning suvli eritmalarda va dispers tizimlardagi kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish;

olingan sirt-faol moddalarni turli dispers tizimlarning barqarorligi va samaradorligiga ta'sirini o'rganish;

sintez qilingan sirt-faol moddalarning kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish asosida ularni sanoatning turli sohalarida amaliyotda foydalanish yo'llarini topish va samaradorligini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida aromatik birikmalar bo'lgan fenol va naftalin asosida sintez qilingan har xil uzunlikdagi uglevodorod zanjiriga ega bo'lgan sirt-faol moddalar qatori, jumladan p-fenolsulfokislota va  $\beta$ -naftalinsulfokislotalarining bir atomli spirtlar bilan murakkab efirlari va ularning natriyli va trietanolaminli tuzlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** aromatik birikmalar bo'lgan fenol va naftalin asosida p-fenolsulfokislota va  $\beta$ -naftalinsulfokislotalarini olish, ularning bir atomli spirtlar bilan murakkab efirlarini va turli tuzlarini sintez qilish, olingan har-xil uzunlikdagi uglevodorod zanjiriga ega bo'lgan sirt-faol moddalar qatorining kolloid-kimyoviy xossalarini o'rganish va sanoatning turli sohalarida foydalanish yo'llarini aniqlashni tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda zamonaviy va an'anaviy fizik-kimyoviy (IQ-spektroskopiya, xromotografiya, modda elementlari tahlili) va kolloid-kimyoviy (tenziometriya, konduktometriya, refraktometriya) tahlil usullaridan foydalanilgan.

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

aromatik birikmalar bo'lgan fenol va naftalinni konsentrlangan sulfat kislotasi bilan reaksiyasi natijasida olingan p-fenolsulfokislotasi va  $\beta$ -naftalinsulfokislotasini bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish va mahsulotni neytrallash asosida har xil uzunlikdagi uglevodorod zanjiriga va qarama-qarshi ionlarga ega bo'lgan p-fenolsulfokislotasi va  $\beta$ -naftalinsulfokislotasining sirt-faol hosilalari qatori sintez qilingan;

yangi sintez qilingan sirt-faol moddalarning kimyoviy tuzilishi bilan xossalari orasida o'zaro bog'liqlik aniqlangan, bunda p-fenolsulfokislotasi va  $\beta$ -

naftalinsulfokislotasining murakkab efirlarining molekulasi tarkibida uglevodorod zanjiri uzunligining ortishi bilan birikmalar sirt faolligining, ko‘pik hosil qilish va ho‘llash qobiliyatining ortishi aniqlangan va bu natijalarni o‘rganilgan sirt-faol moddalar eritmalarida gidrofob o‘zaro ta’sirlarning kuchayib borishi bilan isbotlangan;

o‘rganilgan sirt-faol moddalarning kolloid-kimyoviy xossalari orasida bog‘liqlik mavjudligi aniqlangan, bunda birikmalarning sirt faolligining ortishi bilan mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasining kamayishi, emulgirlash xususiyati, ko‘pik hosil qilish va ho‘llash qobiliyatining ortib borishi aniqlangan;

p-fenolsulfokislota va  $\beta$ -naftalinsulfokislotasining murakkab efirlarining suvli eritmalarida konsentratsiyaning ortib borishi bilan eritmalarda kritik opolesensiya hosil bo‘lishi aniqlangan va bu natija o‘rganilgan sirt-faol moddalarning sferik mitsellalar, silindrik va plastinkali tuzilishlar hosil qilishi bilan isbotlangan;

p-fenolsulfokislota va  $\beta$ -naftalinsulfokislotasining bir atomli spirtlar bilan murakkab efiri tuzlarining suvli eritmaları gidrofob yuzalarni gidrofillash xususiyatiga egaligi aniqlangan va bu natijani birikmalar molekularining yuzada monoqavatlar hosil qilishi bilan isbotlangan;

fenol va naftalin asosida sintez qilingan sirt-faol moddalarni rangli metallarni flotatsiya usulida boyitish uchun samarali ko‘pirtiruvchi kompozitsiyalar tarkibida, sement dispers tizimlarining barqarorligi va mustahkamligini oshirish va qotish vaqtini boshqarishda hamda tog‘-kon yo‘llarida changni bostiruvchi eritmalar tarkibida samarali qo‘llash imkoniyatlari aniqlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

fenol va naftalin asosida turli uzunlikdagi uglevodorod zanjiriga ega bo‘lgan sirt-faol moddalar qatorlari sintez qilib olingan;

olingan SFMlarni rangli metallarni flotatsiya usulida boyitishda ko‘pirtiruvchi kompozitsiyalar tarkibida qo‘llash orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi;

kon-metallurgiya sanoati uchun sirt-faol moddalar asosida changni bostiruvchi kompozitsiyalar yaratilgan va ularning kon yo‘llaridagi changlarni bostirishda yuqori samara beradi;

sintez qilingan SFMlar qatorini amaliyotda beton aralashmalarida plastifikator sifatida foydalanish natijasida beton qotishmasining mustahkamligini 10-14 % gacha oshirish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ilmiy ishda qo‘llanilgan zamonaviy fizik va kolloid-kimyoviy usullar bo‘lgan IQ spektroskopiya, skanerlovchi elektron mikroskopiya, modda elementlari tahlili, xromotografiya, tenziometriya, refraktometriya va boshqa tahlil usullaridan foydalanilgani, tajriba sinovlari laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitlarida o‘tkazilganligi, hamda O‘zR FA O‘simlik moddalari kimyosi instituti, “Jizzax sement zavodi” AJ, Navoiy viloyati ekologiya, atrof-muhit muhofaza qilish boshqarmasi, Mineral resurslar institutining sinov laboratoriyasida, “Sinov sertifikat servis” MChJ, “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning misni boyitish fabrikasi sinov laboratoriyalarining dalolatnomalari bilan tasdiqlangan.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, aromatik birikmalar asosida turli uzunlikdagi uglevodorod zanjiriga ega bo'lgan SFMLar qatorini sintez qilish va optimal sharoitlarini aniqlash, birikmalarning tuzilishi bilan kolloid kimyoviy xossalari orasidagi bog'liqliklarni topish natijalaridan yanada samarali yangi SFMLarni sintez qilish va kompozitsiyalar yaratish uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, aromatik birikmalar asosida sintez qilingan sirt-faol moddalar olish texnologiyasini ishlab chiqish va sanoatda ishlatish yo'llarini topish yangi birikmalarni amaliyotga qo'llashda, kimyo va kimyoviy-texnologiya sohasida bakalavrlar, magistrlar va doktorantlar tayyorlashda, oliy va maxsus ta'lim jarayonlarida foydalanish uchun xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Aromatik birikmalar asosida yangi sirt-faol moddalar sintezi va kolloid kimyoviy xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

aromatik birikmalar asosida sintez qilingan SFMLar yordamida ko'pirtiruvchi kompozitsiyalar olish usuli «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024-yil 17-sentyabrdagi 09-24/42-00026-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, sintez qilingan sirt-faol moddalar va ular asosida olingan ko'pirtiruvchi kompozitsiyalar ruda tarkibidagi mis konsentratini 88,6% dan 93,5% gacha boyitish imkonini beradi;

ko'pirtiruvchi AFS-2, FAB-9, BN-0,25 kompozitsiyalarni rudalarni boyitishda qo'llash usuli «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJ ning «2025-2026-yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati»ga kiritilgan («Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJning 2024-yil 17-sentyabrdagi 09-24/42-00026-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, olingan ko'pirtiruvchi kompozitsiyasini 40 g/t miqdorida qo'llanilganda ruda tarkibidagi mis konsentratini hozirda amalda ishlatilayotgan T-92 preparatiga nisbatan 91,1% dan 93,5% ga qadar boyitish imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishining natijalari 7 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 113 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot obyektlari va


predmeti tavsiflangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fani va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, olingan natijalarning amaliyotga joriy etilish holati, chop etilgan ilmiy ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Aromatik birikmalar asosida sirt-faol moddalar sintez qilish usullari, xossalari va qo‘llanilishi**” deb nomlangan birinchi bobida ilmiy-texnik adabiyotlarda va patent nashrlarida chop etilgan ishlarning tahlili keltirilgan bo‘lib, unda aromatik birikmalar asosida sirt-faol moddalar sintez qilish, kimyoviy tuzilishi va xossalari, ishlatilish sohalari hamda istiqbollari haqidagi izlanishlarning hozirgi holati berilgan.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili aromatik birikmalar asosida yangi sirt-faol moddalar sintez qilish yo‘llarini topish uchun yordam berdi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuningdek, mazkur ishda qo‘yilgan maqsad va vazifalarni shakllantirishga yordam bergan.


Ikkinchi bob “**Tadqiqot obyektlari va usullari**” deb nomlanib unda yangi sintez qilingan sirt-faol moddallarning tuzilishini va kolloid-kimyoviy xossalarini tadqiq qilishda qo‘llanilgan tadqiqot usullari, shuningdek, qo‘llanilgan moddalar va reaktivlarning tavsifi keltirilgan.

Dissertatsiyaning « **Aromatik birikmalar asosida sirt-faol moddalar sintezi va maqbul sharoitlari** » deb nomlangan uchinchi bobida, sirt-faol moddalarni sintez qilish yo‘llari keltirilgan. P-fenolsulfokislotasining murakkab efirlarini olish uchun birinchi bosqichda fenol va konsentrlangan sulfat kislotasini 1:1 nisbatda 120 °C haroratda 4 soat davomida doimiy aralashtirish natijasida fenolsulfokislota olindi. Fenolsulfokislota olishning reaksiya tenglamasi quyidagicha ifodalandi:



Fenolni temperatura ostida konsentrlangan sulfat kislotasi bilan reaksiyasi natijasida orto- va para-sulfofenollar aralashmasi hosil bo‘ladi. Bunda reaksiyani 120 °C haroratda olib borilganda termodinamik omil natijasida sulfoguruh aromatik halqaning para holati tomon siljiydi va bu reaksiya natijasida 96 foizgacha p-fenolsulfokislota hosil bo‘lishiga olib keladi. Reaksiya 4 soat davom etganidan so‘ng hosil bo‘lgan p-fenolsulfokislota va oz miqdordagi o-fenolsulfokislota aralashmasi xona haroratigacha (20°C) sovutildi. Reaksiya mahsulotini atsetonli eritmasidan geksan yordamida cho‘ktirish orqali p-fenolsulfokislota ajratib olindi. Reaksiyadan sintez qilib olingan p-fenolsulfokislota unumi 91,6% ni tashkil etdi.

Ikkinchi bosqichda, sintez qilingan p-fenolsulfokislotasini bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilindi. Ushbu p-fenolsulfokislotasini bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilish jarayonini quyidagi kimyoviy reaksiya tenglamasi orqali ifodalandi:




bu yerda R = -C<sub>7</sub>H<sub>15</sub> (AFS-2), -C<sub>8</sub>H<sub>17</sub> (AFS-3), -C<sub>10</sub>H<sub>21</sub> (AFS-4), -C<sub>12</sub>H<sub>25</sub> (AFS-5).

Ushbu bosqichda p-fenolsulfokislotasining bir atomli spirtlar bilan murakkab efirlarini olish uchun p-fenolsulfokislotasini bir atomli spirtlar bilan turli nisbatlarda 80°C dan 160°C gacha bo'lgan haroratda, minutiga 450 ayl/min tezligida magnitli aralastirgichda 4 soat davomida aralastirib eterifikatsiya qilindi. Murakkab efirlarini olish uchun katalizator sifatida konsentrlangan sulfat kislotasidan foydalanildi. Eterifikatsiya reaksiyasi natijasida chiqqan suvni Dina-Starka qurilmasi yordamida ajratildi.

Reaksiya mahsulotini etanol va benzol yordamida uch marta cho'ktirish orqali ajratib tozalab olindi. So'ngra tozalab olingan reaksiya mahsulotidan etanol va benzol qoldiqlarini vakuum ostida 60 °C haroratda vakuum nasos yordamida haydab ajratib olindi. Tozalab olingan sirt-faol moddani quritish uchun uni tubiga suvsiz CaCl<sub>2</sub> solingan eksikatorida past bosim ostida saqlandi.

Sintez qilingan yangi SFMLarning kimyoviy tuzilishini aniqlash maqsadida birikmalarning elementlari tahlili va IQ-spektrlari olindi. Sintez qilingan p-fenolsulfokislotasining oktil efiri IQ-spektri quyidagi 1-rasmda keltirilgan.




**1-rasm. p-fenolsulfokislotasi oktil efirining IQ-spektri.**


Yuqoridagi 1-rasmdagi IQ spektri tahlil qilinganda 1500-1590 sm<sup>-1</sup> sohadagi cho'qqilar aromatik halqadagi CH va CH<sub>2</sub> bog'lariga, 2926-2958 dagi cho'qqilar murakkab efir bog'lariga, 1200-1100 sm<sup>-1</sup> va 1050-1000 sm<sup>-1</sup> dagi cho'qqilar sulfo guruhiga tegishli ekanligi aniqlandi. Yuqorida keltirilgan IQ-spektrni tahlili ushbu sintez qilingan birikma p-fenolsulfokislotasining oktil efiriga hosligini ko'rsatdi. Shuningdek ushbu birikmaning element tahlili natijalari asosida uning kimyoviy tuzilishi aniqlandi.

Yuqorida sintez qilingan p-fenolsulfokislotasining bir atomli spirtlar bilan murakkab efirlarini etanoli muhitda NaOH va trietanolaminlar bilan neytrallash reaksiyasi orqali ularning tuzlari ham olindi. Ushbu p-fenolsulfokislotasini bir atomli spirtlar bilan efirlarining tuzlarini sintez qilish jarayonini quyidagi

kimyoviy reaksiya tenglamasi orqali ifodalandi: 20°C




bunda: R= C<sub>7</sub>H<sub>15</sub> p-fenolsulfokislota geptil efiri natriy tuzi (AFSN-2); R= C<sub>12</sub>H<sub>25</sub> p-fenolsulfokislota dodetsil efiri natriy tuzi (AFSN-5);




bunda: R= C<sub>7</sub>H<sub>15</sub> p-fenolsulfokislota geptil efiri trietanolamin tuzi (AFST-2); R= C<sub>12</sub>H<sub>25</sub> p-fenolsulfokislota dodetsil efiri trietanolamin tuzi (AFST-5).

Naftalin asosida sirt faol moddalar olish uchun birinchi bosqichda naftalin va konsentrlangan sulfat kislotasini 1:1,1 nisbatda 160<sup>0</sup> C haroratda 4 soat mobaynida doimiy aralashtirish natijasida β-naftalinsulfokislota olindi.



Ikkinchi bosqichda, sintez qilingan β-naftalinsulfokislota bir atomli spirtlar bilan eterifikatsiya qilindi. Buning uchun β-naftalinsulfokislota bir atomli spirtlar bilan turli nisbatlarda 125°C dan 150°C gacha bo'lgan haroratda, magnitli aralashtirgichda 4 soat davomida aralashtirib eterifikatsiya qilindi. Katalizator sifatida konsentrlangan sulfat kislotasidan foydalanildi. Reaksiya natijasida chiqqan suvni Dina-Starka qurilmasi yordamida ajratildi. Eterifikatsiya qilish jarayonini quyidagi kimyoviy reaksiya tenglamasi orqali ifodalandi:



Bu yerda R = C<sub>7</sub>H<sub>15</sub> β-naftalinsulfokislota geptil efiri (ANS-3), R= C<sub>10</sub>H<sub>21</sub> β-naftalinsulfokislota detsil efiri (ANS-5)

Dissertatsiyaning «**Aromatik birikmalar asosida olingan sirt-faol moddalarining kolloid-kimyoviy xossalari**» deb nomlangan to'rtinchi bobida, sintez qilingan SFMlarning kolloid-kimyoviy xossalari o'rganilgan va olingan natijalar tahlil qilingan. Jumladan, bu bobda sintez qilingan birikmalarning suvli eritmalarining sirt tarangligi, ko'pik hosil qilish qobiliyati, mitsella hosil qilish kritik konsentratsiyasi (MHKK), dinamik aloqa burchagi va emulsiyalarni barqarorlashtirish qobiliyati va optik xossalari aniqlangan. Sintez qilingan yangi SFMlarning suvli eritmalarining sirt tarangligi turli konsentratsiyalarda temperaturaga bog'liq holda o'rganildi. Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.


## SFMLarning suvli eritmalarining sirt tarangligi

SFM nomi	T, K	SFMLarning turli konsentratsiyali (C, %) suvli eritmalarining sirt tarangligi ( $\sigma$ , mN/m)									
		5	2,5	1,25	0,62	0,31	0,08	0,02	0,005	0,001	0,0001
AFS-2	293	29,6	30,7	30,9	31,1	31,7	34,4	39,9	49,2	68,1	72,4
	303	28,7	29,8	30,5	30,8	30,9	33,8	39,0	48,6	67,5	71,9
	313	27,6	29,4	29,9	30,2	30,4	33,1	38,4	47,1	66,8	71,1
	323	26,8	28,2	29,1	29,8	29,9	32,5	37,6	46,2	66,1	70,5
	333	26,1	27,1	28,5	29,2	29,3	32,0	36,9	46,0	65,5	69,8
AFS-3	293	28,1	28,2	28,3	28,8	29,7	31,2	33,9	47,7	67,3	72,2
	303	27,6	29,4	27,9	28,2	29,4	30,1	32,4	47,1	66,8	71,8
	313	26,8	28,2	27,1	27,8	28,9	29,5	31,6	46,2	65,1	71,0
	323	26,1	27,1	26,5	27,2	28,3	29,0	30,9	45,0	64,5	70,2
	333	25,7	26,3	26,0	26,4	27,7	28,2	30,1	44,5	64,0	69,6
AFS-4	293	26,3	26,6	26,7	26,9	27,3	28,7	30,5	45,6	66,2	72,1
	303	25,7	26,3	26,0	26,4	26,7	28,2	30,1	45,1	66,0	71,7
	313	25,0	25,9	25,7	26,0	26,3	27,6	29,3	44,4	65,3	71,0
	323	24,9	25,5	25,5	25,8	26,0	26,9	28,9	44,0	64,0	70,1
	333	24,9	25,2	25,3	25,5	25,8	26,8	28,0	43,2	63,3	69,4
AFS-5	293	25,9	26,2	26,3	26,4	26,8	27,9	28,7	43,1	63,3	72,1
	303	25,7	25,9	26,0	26,2	26,7	27,2	28,1	42,5	62,0	71,5
	313	25,0	25,9	25,7	26,0	26,3	27,7	29,3	42,0	61,2	70,8
	323	25,0	25,5	25,5	25,8	26,0	27,4	28,9	41,7	60,9	70,0
	333	25,0	25,2	25,3	25,5	25,8	26,8	28,0	41,1	60,5	69,1

Yuqoridagi 1-jadvalda keltirilgan yangi SFMLarning suvli eritmalarining sirt tarangligining konsentratsiyaga va temperaturaga bog'liqligi natijalar barcha o'rganilgan SFM lar yuqori sirt faollikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Olingan natijalardan ko'rinadiki, o'rganilgan SFMLarning suvli eritmalaridagi konsentratsiyasi oshgani sayin, ularning sirt-faolligi ham ortib boradi. Bunda SFMarning suvli eritmasining konsentratsiya ko'tarilishi bilan eritmalarining sirt tarangligi 25-29 mN/m gacha pasayishi aniqlandi. Shuningdek, SFMLarning turli konsentratsiyali eritmalarida harorat oshishi bilan eritmalarining sirt tarangligi pasayib boradi. Bu natijalarni harorat va konsentratsiyaning oshishi bilan eritmadagi birikmalarning adsorbsion qobiliyati va sirt faolligining oshishi bilan izohlash mumkin.


Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, SFM molekulasidagi chiziqli uglevodorod zanjiridagi CH<sub>2</sub> guruhlar sonining ortishi bilan sirt faollikning oshishi va MHKK qiymatining pasayishi kuzatildi. Quyidagi 2-rasmda p-fenolsulfokislotasining murakkab efilari suvli eritmasining sirt tarangligini konsentratsiyaga bog'liqlik grafigi keltirilgan.



**2-rasm. SFMlar suvli eritmalarini sirt tarangligining ( $\sigma$ , mN/m) konsentratsiyaga (C, %) bog'liqligi:** 1) AFS-2, 2) AFS-3, 3) AFS-4, 4) AFS-5.

Olingan natijalar (2-rasm) shuni ko'rsatadiki, o'rganilgan SFMlarning suvli eritmalarining sirt tarangligi suvdagi SFMlarning konsentratsiyasi ortishi bilan kamayib boradi. O'rganilgan sirt-faol moddalarning molekulari o'zining amfifilik tuzilishi tufayli suv yuzasiga adsorbsiyalanadi va suvning sirt tarangligini kamaytiradi. Shuningdek grafikdan ko'rinadiki, yuqori konsentratsiyasidagi sirt-faol moddalar eritmalarining sirt tarangligi deyarli o'zgarmay qoladi. Bu natijani yuqori konsentratsiyalarda sirt-faol modda molekulari suv yuzasiga adsorbsiyalanib, uning yuzasini to'liq qoplashi va suvning sirt tarangligi maksimal darajada kamayishi bilan izohlash mumkin. Eritma yuzasi SFM molekulari bilan to'liq qoplangach SFM konsentratsiyasining yanada ortishi natijasida molekular mitsellalarni hosil qiladi. Olingan natijalardan ko'rinadiki, MHKK yetganda eritmaning sirt tarangligi o'zgarmay qoladi va doimiy bo'lib qoladi.

Turli qarama-qarshi ionlarga ega bo'lgan SFMlarning suvli eritmalarining sirt tarangligining konsentratsiyaga bog'liq holda o'zgarishi 3-rasmda keltirilgan.



**3-rasm. SFMlar molekulasidagi qarama-qarshi ionlarning sirt-faollikka ta'siri (293 K da):** A) 1) AFS-2, 2) AFSN-2, 3) AFST-2; B) 1) AFS-5, 2) AFSN-5, 3) AFST-5.

Yuqorida keltirilgan 3-rasmdan ko'rishimiz mumkinki SFMlarning qarama qarshi ionlari qatorida  $H^+ < Na^+ < NH(CH_2CH_2OH)_3^+$  birikmalarning sirt faolligi ortib boradi. Ushbu natijani SFMlarning qarama-qarshi ionlari radiusining ortishi natijasida birikmalarning difilligining ortishi bilan izohlash mumkin.

Yangi olingan SFMlarning suvli eritmalarining ko'pik hosil qilish qobiliyati eritmaning konsentratsiyasiga, vaqtga va temperaturaga bog'liq holda o'rganildi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.

## 2-jadval.

## SFMLarning suvli eritmalarining turli konsentratsiyalardagi ko'pik hosil qilish qobiliyatlari va vaqt davomida ko'pikning barqarorligi


SFM nomi	SFM konsentratsiyasi, (C, %)	Vaqt davomida (t, min.) / Ko'pikning hajmi (V, ml)						B, (ko'pik barqarorligi)	K/E, (ko'pik eritma nisbati)
		0	1	3	5	10	20		
AFS-2	5	262,0	241,0	240,8	235,1	233,6	231,2	0,88	2,62
	2,5	252,6	240,2	236,6	223,9	222,0	217,1	0,87	2,52
	1,25	249,0	242,1	235,0	226,7	219,3	211,5	0,84	2,49
	0,62	235,3	230,1	225,5	215,3	205,2	190,1	0,82	2,35
	0,31	220,1	218,1	213,2	200,2	188,8	180,0	0,81	2,20
AFS-3	5	289,0	285,0	272,0	270,0	265,0	253,5	0,87	2,92
	2,5	288,0	284,0	269,5	265,5	250,5	245,5	0,85	2,88
	1,25	281,5	280,5	268,5	265,0	243,5	237,5	0,85	2,81
	0,62	275,0	273,5	262,0	257,5	246,0	235,0	0,85	2,75
	0,31	260,0	255,0	253,0	245,0	225,5	220,0	0,84	2,60
AFS-4	5	310,0	295,0	284,0	274,0	260,0	255,5	0,84	3,10
	2,5	300,0	290,0	285,5	270,5	265,5	245,5	0,81	3,00
	1,25	295,5	283,5	275,5	265,0	250,5	235,5	0,80	2,95
	0,62	280,0	268,5	262,0	257,5	243,0	220,0	0,78	2,80
	0,31	262,0	250,5	248,5	245,0	232,0	190,0	0,73	2,62
AFS-5	5	344,0	340,0	324,0	314,0	310,0	305,5	0,88	3,44
	2,5	340,0	330,0	315,5	290,5	275,5	265,5	0,78	3,40
	1,25	325,5	313,5	300,5	285,0	250,5	245,5	0,78	3,25
	0,62	310,0	298,5	282,0	267,5	253,0	240,0	0,77	3,10
	0,31	285,0	270,5	258,5	245,0	232,0	220,0	0,76	2,85

Olingan natijalardan (2-jadval) ko'rinadiki, sirt-faol moddaning uglevodorod zanjiri C<sub>7</sub> dan C<sub>12</sub> gacha uzayganida uning ko'pik hosil qilish qobiliyatining ortishi kuzatildi. Ushbu natijani birikmadagi uglevodorod zanjiri uzayishi bilan sirt-faol moddaning molekullari ko'pikning suyuqlik qavati yuzasida adsorbsiyasining ortishi bilan izohlash mumkin. Olingan natijalar asosida o'rganilgan SFMLarning suvli eritmalarining konsentratsiyasini oshishi bilan ularning ko'pik hosil qilish qobiliyati va ko'pikning barqarorligi ortib borishi aniqlandi.

Yangi SFM eritmalarining turli haroratlarda ko'pik hosil qilish qobiliyati va ko'pikning barqarorligi o'rganildi. Olingan natijalar quyidagi 4-rasmda keltirilgan.

Olingan natijalardan (4A-rasm) ko'rinadiki p-fenolsulfokislota murakkab efirlarining 0,5% li eritmasida ko'pikning barqarorligi harorat oshib borishi bilan pasayib boradi. Bu natijani shunday izohlash mumkinki, harorat oshib borishi bilan ko'pik plyonkasi ichidagi suvning oquvchanligini ortishi natijasida ko'pik devori yupqalashib, tezroq parchalanadi.

Keltirilgan grafikdan (4B-rasm) ko'rinadiki p-fenolsulfokislota murakkab efirlarining suvli eritmalarida harorat oshishi bilan ko'pik hosil bo'lishi ortadi.



**4-rasm. SFMlarning 0,5% li suvli eritmalarida turli haroratdagi (293-333 K)**

**A) ko'pikning barqarorligi (B), B) ko'pik hosil qilish qobiliyati (K/E).**

Bu natijani harorat ortishi bilan SFM molekularining suyuqlik-havo chegarasida adsorbsiyasining kuchayishi bilan tushuntirish mumkin. AFS-2<AFS-3<AFS-4<AFS-5 qatorida SFMlarning ko'pik hosil qilish qobiliyatining ortishi kuzatildi. Bu natijani ushbu qatorda sirt-faol moddalar molekulasidagi uglevodorod zanjiri uzunligining ortib borishi bilan eritmada gidrofob o'zaro ta'sirlarning kuchayishi va SFM molekularining ko'pik plyonkasi yuzasidagi adsorbsiyasi bilan izohlash mumkin.

Ma'lumki sirt-faol modda molekulari suvli eritma yuzasida adsorbsiyalanib suvning sirt tarangligini pasaytiradi. Bunda SFMning eritmadagi konsentratsiyasi oshishi natijasida eritmaning sirt yuzasi to'yingan holatga kelib, SFMning eritmadagi konsentratsiyasining yanada ko'payishi esa sirt-faol moddalarning eritmada mitsella hosil qilishiga olib keladi. Quyidagi 3-jadvalda o'rgailgan sirt-faol moddalarning suvli eritmalarida MHKKsi va unga mos holda eritmaning sirt tarangligi hamda optik zichligi turli temperaturalarda keltirilgan.


**3-jadval.**

**SFMlarning suvli eritmalarining turli haroratlardagi MHKK (g/l), eritmalarining sirt tarangligi ( $\sigma$ , mN/m) va optik zichligi (D)**

SFM	T, K	MHKK (g/l)	$\sigma$ , mN/m	D
AFSN-2	298	4,33	26,95	0,12
	308	4,20	25,83	0,11
	318	3,90	25,61	0,10
AFS-5	298	3,53	27,75	0,18
	308	3,31	26,83	0,17
	318	3,01	26,21	0,16
AFS-4	298	4,24	28,24	0,17
	308	4,15	27,48	0,16
	318	3,94	27,02	0,152
AFS-3	298	5,12	30,24	0,15
	308	4,85	29,48	0,14
	318	4,64	28,34	0,13
AFS-2	298	5,42	30,64	0,15
	308	5,23	29,48	0,14
	318	4,94	28,92	0,13

